Bo‘lajak tarbiyachilarda ekomadaniy kompetensiyaning pedagogik mohiyati

Raximova Surayyo Ziyautdinovna
tyutor
Farg‘ona davlat universiteti
raximovasuraje0@gmail.com

IQTIBOS UCHUN

Raximova S.Z. Bo‘lajak tarbiyachilarda ekomadaniy kompetensiyaning pedagogik mohiyati // Zamonaviy fan, texnologiya va innovatsiyalar: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (ZFTI–2026, 5-noyabr 2026-yil). – 2026. – B. 25–27. – https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/051105

QR-kod — DOI sahifasiga havola

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida bo‘lajak tarbiyachilarning ekomadaniy kompetensiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati va uning konseptual-pedagogik mohiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, oliy ta’lim jarayonida talabalarning ekologik-madaniy tayyorgarligini oshirishning funksional vazifalari va uning barqaror rivojlanish ta’limi tamoyillariga muvofiqligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ekomadaniyat, kompetensiya, pedagogik mohiyat, aksiologik yondashuv, ekologik tarbiya, kasbiy tayyorgarlik, global iqlim, kognitiv komponent.

АННОТАЦИЯ

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ЭКОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ

Рахимова Сурайё Зияутдиновна, тьютор, Ферганский государственный университет

В данной статье научно анализируются социально-педагогическая необходимость формирования экокультурной компетентности будущих воспитателей в условиях модернизации системы дошкольного образования, а также её концептуально-педагогическая сущность. Кроме того, рассматриваются функциональные задачи повышения эколого-культурной подготовки студентов в процессе высшего образования и её соответствие принципам образования в интересах устойчивого развития.

Ключевые слова: экокультура, компетенция, педагогическая сущность, аксиологический подход, экологическое воспитание, профессиональная подготовка, глобальный климат, когнитивный компонент.

ABSTRACT

THE PEDAGOGICAL ESSENCE OF ECO-CULTURAL COMPETENCE IN FUTURE EDUCATORS

Rakhimova Surayyo Ziyautdinovna, Tutor, Fergana State University

This article provides a scientific analysis of the socio-pedagogical necessity of developing eco-cultural competence among future preschool educators in the context of modernizing the preschool education system, as well as its conceptual and pedagogical essence. It also highlights the functional objectives of enhancing students’ environmental and cultural preparedness in the higher education process and its alignment with the principles of education for sustainable development.

Keywords: eco-culture, competence, pedagogical essence, axiological approach, environmental education, professional training, global climate, cognitive component.

KIRISH

Insonning tabiatga bo‘lgan ongli va mas’uliyatli munosabati, atrof-muhitni asrab-avaylashga qaratilgan xulq-atvori **ekomadaniyat** bo‘lib, **uzluksiz ekologik ta’lim va tarbiya** jarayonida davom ettirilishi va jamiyatda keng ildiz otishiga bog‘liq.

Ekomadaniyat shunchaki individual odat emas, ekomadaniyatning davomiyligi oiladagi tarbiya, yosh bolalarda suvni tejash, o‘simliklarni parvarish qilish kabi ko‘nikmalar orqali maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlanadi va keyingi avlodga o‘tadi.

Hozirgi kunda resurslarni tejash, chiqindisiz texnologiyalarga o‘tish sanoat, qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarishda “yashil texnologiyalar”ni qo‘llash ekomadaniyatning amaliy davomi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Fuqarolarning daraxt ekish aksiyalari, hasharlarda ko‘ngilli ravishda qatnashishi, ya’ni ijtimoiy faolliklari ekomadaniyatning davomiyligini ta’minlaydi.

Ekomadaniyatning davom etishi – insoniyatning kelajak avlodlar oldidagi burchi bo‘lib, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni saqlaydi. Bu esa davlat darajasida ekologik qonunlarga rioya qilish, tabiatga zarar yetkazmaslik uchun javobgarlik hissi va ekologik madaniyatni qonunchilik normasi sifatida qabul qilishni kafolatlaydi.

Suv, elektr energiyasi va gazdan oqilona foydalanish, bir marta ishlatiladigan plastik buyumlardan voz kechish, chiqindilarni saralash va qayta ishlashga topshirish, daraxtlar ekish, yashil hududlarni ko‘paytirish, hayvonot olamini muhofaza qilish – ekomadaniyatning asosiy tarkibiy qismlaridir.

Shuningdek, atrof-muhitni ifloslantirmaslik qoidalariga rioya etish va buni jamiyatda targ‘ib qilish ekologik huquq va majburiyatlarini shakllantiradi.

Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida tabiatga nisbatan mas’uliyatli va to‘g‘ri munosabatni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik, psixologik hamda falsafiy yondashuvlar bo‘lajak tarbiyachilarda ekomadaniy kompetensiyalarni shakllantirishning konseptual asoslari hisoblanadi.

Bunday metodik ko‘nikmalarning shakllanishi bo‘lajak tarbiyachining maktabgacha yoshdagi bolalarga toza va tushunarli tilda ekologik bilimlarni yetkazib bera olishiga yordam beradi.

Bo‘lajak tarbiyachi o‘zining kompetensiyaviy yondashuvi orqali bolalarga shunchaki nazariy bilim beribgina qolmay, ekologik muammolarni amaliyotda hal qilishni va to‘g‘ri namuna bo‘lishni ustuvor qo‘yadi. Ekologik ta’lim berishda tizimli va integratsiyalashgan yondashuv orqali maktabgacha ta’lim metodikasi, pedagogika va psixologiya fanlari bilan uzviy bog‘laydi. Talabaning shaxsiy ekologik qadriyatlari, dunyoqarashi va tabiatga bo‘lgan ichki munosabatini rivojlantirishga e’tibor qaratadi. Kompetensiyalarini faqat auditoriyada emas, balki bevosita ekologik aksiyalar va loyihalar orqali foydali yondashib, shakllantiradilar.

Bo‘lajak tarbiyachining ekomadaniy kompetensiyasi ekologiya, global iqlim o‘zgarishlari, tabiatni muhofaza qilish usullari va maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish metodikasini mukammal bilish orqali, tabiatni oliy qadriyat deb bilish, unga nisbatan hurmat, g‘amxo‘rlik va ekologik mas’uliyat hissini shakllantirish va ekologik muammolarni hal qilishda interfaol o‘yinlar va innovatsion texnologiyalarni amaliyotda qo‘llay olish layoqati, shuningdek, o‘zining kasbiy-ekologik faoliyatini tahlil qilish, ekologik madaniyat darajasini muntazam baholash va rivojlantirib borish orqali shakllanib boradi.

Bo‘lajak tarbiyachilarni yuqorida keltirilgan kompetensiya egasi qilib tarbiyalash uchun, oliy ta’limda virtual laboratoriyalar va raqamli ta’lim vositalari bilan jihozlangan bo‘lib, talaba

ekologik jarayonni vizuallashtirish imkoniga ega bo‘lishi kerak. Bu amaliyotlar malakaviy o‘quv amaliyotida bo‘lajak tarbiyachilarning bog‘chalarda ekologik burchaklar va o‘yinlar tashkil qilishda tajribasini oshiradi.

Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ekologik ertaklar, nostandart ekologik vaziyatlar (keyslar) va o‘yin texnologiyalarini ishlab chiqish bilan birga kreativligi oshadi.

Bir so‘z bilan aytganda, ushbu konseptual asoslarning bosh maqsadi — **“ekologik madaniyatli tarbiyachi — ekologik madaniyatli bola — ekologik toza jamiyat”** zanjirining mustahkam bo‘g‘inini yaratishdan iboratdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga bo‘lgan mehri, mas’uliyati va atrof-muhitni asrash ko‘nikmalarini shakllantirish ularda ekomadaniyatni rivojlantiradi. Bu yoshdagi bolalar axborotni asosan his-tuyg‘ular, o‘yinlar va ko‘rgazmalar orqali qabul qiladilar. Shuning uchun, didaktik, syujetli-rolli va harakatli o‘yinlar orqali bolalarga tabiat qonuniyatlarini o‘rgatish oson bo‘ladi.

Bolalar bilan birgalikda suvning muzlashi, urug‘ning unib chiqishi, qum va tuproqning xususiyatlarini o‘rganish kabi oddiy tajribalar ularda sabab-oqibat aloqalarini tushunishni rivojlantiradi.

Bolalarda real tasavvurlarni kengaytirish maqsadida bog‘cha hovlisi, park yoki skverlarga sayohatlar tashkil etish, daraxtlar, gullar, hasharotlar va qushlarni bevosita kuzatish, guruh xonasida xona o‘simliklari va akvariumdagi baliqlarini parvarish qilish hamda ularning o‘sishini kundalik ravishda kuzatib borish metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Tabiat, hayvonlar va o‘simliklar tilidan so‘zlanadigan ertaklarni o‘qib berish va muhokama qilish bolalarda emotsional bog‘liqlikni keltirib chiqaradi. Tarbiyachi va ota-onaning o‘zi tabiatga qanday munosabatda bo‘lsa, bola ham bu shaxsiy namunani ko‘rib o‘rganadi.

Demak, ekologik ta’lim faqat alohida mashg‘ulotlarda emas, balki kunlik sayr, o‘yin va muloqot jarayonlariga integratsiya qilinishi kerak. Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarida ekomadaniy kompetensiyani shakllantirish ularning kelajakda bolalarda tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ekologik madaniyatga ega pedagoglar farzandlarimizda ekologik **xavfsiz dunyoqarashni shakllantirish orqali jamiyatga ekologik muammolarni** bartaraf etadigan avlodni tarbiyalab beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dastlabki ekologik dunyoqarash poydevorini shakllantirishda tarbiyachining shaxsiy ekomadaniy namunasi va kasbiy mahorati o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori.
2. Xoliqov **A.** Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. – 420 b.
3. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2020.
4. Sharafutdinova X.G**.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish metodikasi. Darslik. – Toshkent, 2021.
5. Bekchanova F**.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ta’lim berishda kuzatishning ahamiyati. – 2023.
6. Sidiqova Y.S., Qazoqova M.Z. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik ta’lim bo‘yicha o‘qitish turlari // Universal Publishings. – 2024.
7. Karimov, U., Karimova, G., & Makhamadaliev, L. (2022). The role and significance of spiritual values in youth education. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, *12*(2), 181-185.
8. Karimova, G. (2024). Axloqiy madaniyat tushunchasini rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyati. *Scienceproblems.uz*, *3*(12/1).